Iminov Begzod Begijonovich (Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); iminovbegzod7@gmail.com)

AXBOROT XURUJLARINING INSON ONGIGA TA’SIRINING FALSAFIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadallashib borayotgan davrdan inson onggi va ma’naviyatiga ta’sir qiluvchi axborot xurujlari falsafiy tahlil qilingan. Yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarimiz hayotida virtual va vizual axborot tizimlaridan oqilona foydalanish samarodorligi ko‘rsatilgan. Axborot muhitining paydo bo‘lishi, Yer kurrasining har qarich joyi bo‘sh bo‘lmasligi sababli bu muhitni nafaqat taqsimlab olishni, balki unda sodir bo‘layotgan jarayonlarni nazorat qilish va boshqarishni istaganlar paydo bo‘lishiga olib keladi.*

Kalit so‘zlar: *axborot urushi, axborot tizimi, harbiy strategiya, mafkura, siyosiy kuchlar, axborot texnologiyasi, ommaviy madaniyat, virtual va vizual olam, inson-jamiyat-davlat, ommaviy axborot vositalari.*

Иминов Бегзод Бегижанович (доктор философии по философским наукам (PhD), доцент, Ферганский государственный университет; iminovbegzod7@gmail.com)

ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ВОЗДЕЙСТВИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ АТАК НА СОЗНАНИЕ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. *В данной статье проведён философский анализ информационных атак, воздействующих на сознание и духовность человека в условиях стремительно ускоряющегося времени. Показана эффективность разумного использования виртуальных и визуальных информационных систем в жизни молодёжи на новом этапе развития общества. Появление информационной среды и то обстоятельство, что на земном шаре практически не осталось ни одного незанятого пространства, приводит к тому, что возникают силы, стремящиеся не только распределить эту среду между собой, но и контролировать и управлять происходящими в ней процессами.*

Ключевые слова*: информационная война, информационная система, военная стратегия, идеология, политические силы, информационные технологии, массовая культура, виртуальный и визуальный мир, человек–общество–государство, средства массовой информации.*

Iminov Begzod Begijonovich (Fergana State University, Associate Professor; iminovbegzod7@gmail.com)

PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE IMPACT OF INFORMATION ATTACKS ON HUMAN CONSCIOUSNESS

Annotation. *This article provides a philosophical analysis of information attacks that influence human consciousness and spirituality in an increasingly accelerated era. It highlights the effectiveness of the rational use of virtual and visual information systems in the lives of young people at the new stage of development. The emergence of the information environment, together with the fact that not a single part of the Earth remains outside this environment, has led to the appearance of actors who seek not only to distribute and control this space but also to monitor and manage the processes occurring within it.*

Keywords: *information warfare, information systems, military strategy, ideology, political forces, information technology, mass culture, virtual and visual world, human-society-state relations, mass media.*

Kirish (Introduction). Matbuotda nisbatan yangi «axborot quroli» va «axborotlar jangi» atamalari tez-tez uchraydi, ular mazmunan harbiy san’atda inqilobni anglatadi. Chunki bu atamalar ortida qarama-qarshilikning prinsipial yangi shakli yashirinib yotadi, ularda «g‘alaba», «dushmanni yo‘q qilish» maqsadi, yadro quroli yoki urush olib borish an’anaviy usullari yordamida emas, balki radioelektron vositalar axborot qurolidan ommaviy foydalanish yo‘li bilan erishiladi. Rivojlangan mamlakatlarning ko‘pchilik analitiklari qurolning bu turini «zamonaviy dunyoda egalik qilishning hal qiluvchi omili», deb hisoblaydilar. Shunday qilib, «XXI asrning troyan oti» deb atash odat bo‘lib qolgan «axborot jangi» va «axborot quroli» o‘zi nima?

Axborot muhitining paydo bo‘lishi, Yer kurrasining har qarich joyi bo‘sh bo‘lmasligi sababli bu muhitni nafaqat taqsimlab olishni, balki unda sodir bo‘layotgan jarayonlarni nazorat qilish va boshqarishni istaganlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Buning uchun axborot urushlar deb ataluvchi vositalardan foydalaniladi. Axborot urushi dushmanning ma’lumotlariga va axborot tizimlariga ta’sir ko‘rsatish va bir vaqtning o‘zida o‘z ma’lumotlarini, axborot tizimlarini mustahkamlash yo‘li bilan milliy harbiy strategiyasini ta’minlashda axborot ustunlikka erishishga qaratilgan harakatlardan tashkil topadi [1;64-b.].

XXI asrga kelib, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega bo‘lib borayotgani, tabiiyki, ma’lum bir maqsadlarni amalga oshirishda katta-katta korporatsiyalar, turli siyosiy kuchlar va markazlardan tashqari zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari bilan qurollangan ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynayotgani hech kimga sir bo‘lmay qoldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Rivojlanib borayotgan dunyo hamjamiyatida axborot xurujlarining inson faoliyatiga ta'siri, virtual va vizual olamda fikrlar qarama-qarshiligining falsafiy jihatdan tahlili va talqinini o'zbek faylasuf olimlari o'rganib kelmoqda. Odamzot qadim-qadimdan ideal jamiyat qurishni orzu qiladi. Ularga o'zicha "yangi dunyo", "adolat olami" deb nom ham qo'yadi. Axboriy jamiyat konsepsiya ko'rinishiga kelgunga qadar ko'plab faylasuflar: J.Lixtaymning «postburjuaziya»si, R.Darendorfning «postkapitalizmi», K.Bouldingning "postsivilizatsiyalashgan jamiyati", G.Kanning «postiqtisodiy jamiyati» va R.Barnetning «postneft»ga oid qarashlari biror ahamiyatga egadek edi go'yo. Axboriy jamiyat ularning mantiqiy davomi sifatida o'rganilsa, «post»larning eng so'nggisi, ya'ni F.Fukuyama iborasi bilan aytganda «tarix intihosi»dir.

Xususan, Q.Nazarov, I.Soifnazarov, A.Oshildiyev, O'.Abilov, M.Qirgizboyev, A.Abdunabiyev, D. Alimova, M.Ortiqov, I.Ergashev, S.Otamurodov, M.Quronov, B.To'rayev, J.Ramatov, A.Erkayev, A. Muminov, B.Aliyev, N.Nazarov, N.Hakimov, M.Mamatov, M.Qahhorova, A.Abdumalikov, A.Sayitxonov va S.Yo'ldoshevlarning maqola va ilmiy ishlarida jamiyat uchun muhim bo'lgan axborot madaniyatning inson falsafasiga ta'siri ko'rsatib o'tilgan [2;103-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Inson–jamiyat–davlat tamoyili asosida mamalakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarning rivojiga qaratilgan. Axbort xurujidan shaxslarni saqlab qolish va ularning salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda "axborot urushi", uning kishilik jamiyatiga o'tkazayotgan psixologik bosimi haqida ko'p gapirilmoqda. Ma'lumki, antik davrdan boshlab mafkura va psixologik tushunmovchilik kurashi haqida har doim yozib kelishgan. Fikrlar jangi harbiy tushunmovchiliklarni kuzatib yurgan, bunday holatlar tarixda ko'plab sodir bo'lgan. Axborot urushi deganda, nazariyachi S.Padover ko'p ming yilliklar davomida psixologik jang deb, "dushmanlarda kurashish ishtiyoqini so'ndirish uchun barcha kommunikatsiya turlaridan farqli o'laroq, o'zgacha ta'sirni tushunadi" [3; 3-b]. Hozir, gap OAVning roli, birinchi o'rinda televideniya va internet haqida ketmoqda.

XXI asrga kelib, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega bo'lib borayotgani, tabiiyki, ma'lum bir maqsadlarni amalga oshirishda katta-katta korporatsiyalar, turli siyosiy kuchlar va markazlardan tashqari zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari bilan qurollangan ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynayotgani hech kimga sir bo'lmay qoldi.

Bundan ham xatarlisi ayrim rivojlangan davlatlar axborot urushlarining matematik modellarini takomillashtirishga zo'r bera boshlaganlaridir, AQSHning razvedka bo'yicha hisobotida alohida ta'kidlanganidek, XXI asrga kelib, dunyo urushlarida aynan axborot urushlari hukmronlik qilmoqda. Ma'lumki, «axborot urushi» iborasi birinchi bo'lib 1976-yili Tomas Ronning Boyeing kampaniyasi uchun mo'ljallangan «Qurollar sistemasi va axborot urushi» nomli hisobotida tilga olingan bo'lsa-da, ayni quroldan 1991-yil AQSHning Quvaytga bostirib kirgan Iroqqa qarshi harbiy operatsiyalaridan keyin keng qo'llanila boshlandi [4;54-b.]. Harbiy harakatlar bilan bir qatorda, axborot urushi AQSH armiyasining tashviqot quroliga aylangani bois sobiq Yugoslaviya, Afg'oniston, Iroqqa qarshi amaliyotlar kutilganidan ham yaxshi natijalar berdi. Bu esa jangovar operatsiyalar davrida axborot ta'minotining roli keskin oshganini ham ko'rsatdi. Ammo, keyinchalik, Bolqondagi urush ortida Yevropa Ittifoqining iqtisodiyotini izdan chiqarish intilishi, Iroqqa qarshi kompaniya zamirida esa energetik zaxiralar ustidan nazorat o'rnatish xohishi yotganligi ta'kidlana boshlandi. AQSHda birinchi bo'lib bu tizimni tanqidiy nuqtayi nazardan o'rganish uchun maxsus prezident komissiyasi tuzilganligini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Keyin esa ana shu komissiya xulosasi asosida Prezident direktivasi ishlab chiqilib, u 1998-yili hukumatning axborot xavfsizligini ta'minlash siyosatining asosiga ham aylandi. Bu borada karvonboshilik qilayotgan AQSHning milliy mudofaa universitetida axborot urushi va strategiyasi maktabining faoliyat ko'rsatayotgani, Kaliforniyaning dengiz maktabidagi informatsion urush guruhiga esa axborot operatsiyalari tamoyillari, psixologik operatsiya, axborot xuruji, rejalashtirish va baholash, axborot urushini baholash singari mavzular yuzasidan ma'ruzalar o'qish yo'lga qo'yilgani, mamlakatdagi 1300 ga yaqin elektron va bosma ommaviy axborot vositalari u yoqda tursin, 5 ta yangiliklar xizmatini birlashtirgan televideniya, radio, matbuot va internet tizimlaridan iborat agentlikning 200ga yaqin mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgani, ular uchun hukumat budjetidan 350–500 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratilayotgani ham misol bo'lishi mumkin [5;86-b.]. Rossiya ham keyingi paytlarda, kechikib bo'lsa-da, mazkur yo'nalishda izchil harakatlarga qo'l urdi. Hatto, mamlakat Mudofaa vazirligining axborot-targ'ibot markazi boshqa vazifalar bilan bir qatorda, dushmanning axborot resurslariga xakerlik hujumlarini amalga oshirish bilan shug'ullana boshladi. Ayrim manbalarga ko'ra, raqibni qo'rqitish, uning axborot aloqalarini yo'q qilish, o'zinikini saqlab qolish, informatsiya va yolg'on axborot tarqatishni tashkil etish, mojarogacha va qurolli ziddiyat davrida birdek jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish ana shu markazning maqsadi sifatida belgilab olindi.

Ta'kidlash joizki, axborot urushi deganda, bir mamlakat yoki davlatlar birlashmalarining ikkinchi bir mamlakatga qarshi ommaviy axborot vositalari (bosma va elektron matbuot, internet) orqali amalga oshiradigan xurujlari tushuniladi [6;78-b.]. Aksariyat hollarda, hatto g'oyaviy, siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ro'yobga chiqarishda soxta axborotlardan foydalaniladiki, bu oddiy fuqarolarning axborotning rost yoki yolg'onligini ajrata olmay qolishiga ham olib boradi. Maqsad esa nishonga olingan mamlakat va uning rahbarlari obro'yiga putur yetkazish, o'sha mamlakat qurolli kuchlari va tinch aholisini hokimiyatga qarshi qo'yish, kelajakda qo'llanish mumkin bo'lgan harbiy harakatlarni oqlash va dalillash, raqib yoki dushmanning geosiyosiy nafsoniyatlariga monelik qilishdan iboratdir.

Eng yomoni, bunday axborot oqimlari omma tafakkuriga jiddiy ta'sir ko'rsatmay qolmasligini alohida ta'kidlash joiz. Chunki axborot odamlar ongini zaharlay boshlasa, bu xunuk oqibatlarga olib kelishi muqarrar. Uzoqqa bormaylik, yaqinda Gruziyaning «Imedi» telekanali namoyish etgan ko'rsatuv Tbilisi aholisini sarosimaga solibgina qolmay, ikki nafar fuqaroning yurak xuruji orqali o'lim topishi va xalqaro to'polonlar bilan yakunlanganini bir esga olaylik.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, qo'poruvchilik harakatlarining real xavf va asoratlarini anglash mumkin, ammo ma'naviyatni buzishga qaratilgan urushlarning xatarini qay darajadaligini tushunib yetish, bilish qiyin. Milliy o'zlik, qadriyatlar, shunga yarasha tafakkur qilishning buzilishida turli tadqiqotlar, OAV va reklama agentliklari katta rol o'ynashi bilan bir qatorda, aksincha, mazkur xavfning oldini olish yoki to'g'rilashda ham muhim ahamiyatga egadir. Ongni bo'ysundirish, aqlni buzish, axborot urushlari haqida fikr bildirish kimlar uchundir balandparvozlik, jimjimador gaplar bo'lib tuyular. Ammo munosabatlarning turli ekanini tabiiy qabul qilish lozim. Shuni ham unutmaslik kerakki, axborot asrida amalga oshirilishi odat tusiga kirib borayotgan turli ayyorliklarni o'z vaqtida anglab, uni mafkuraviy immunitet chig'irig'idan o'tkazgan har bir odam ma'naviy kompasini qayerga yo'naltirsa, maqsadga muvofiq bo'lishini chuqurroq tushunib yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

(1). M.Usmonov. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi: mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo'llari. Toshkent, 2017, 285-bet.

(2). A.Abdumalikov. Yoshlar ongida axborot madaniyatini shakllantirish. Farg'ona, 2025, 302-bet.

(3). Padover S.K. Psychological warfare and foreign policy//The theory and practice of international relations. Englewood Cliffs, 1960, p. 238.http://lib.aldebaran.ru

(4). M.M.Kadirov. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. Darslik, 2-qism, T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019, 306-bet.

(5). Dadabayeva R.A., Nasriddinova Sh.T., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Ermatov Sh.T. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari. O'quv qo'llanma, T., "Sano-standart", 2017, 552-bet.

(6). Kenjabayev A.T., Ikromov M.M., Allanazarov A.Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent, 2023, 506-bet.

Iskandarova Shamsiyabonu Ulug'jonovna (BuxDU tayanch doktoranti (PhD);
e-mail: shamsiyaiskandarova@gmail.com)

BILIM VA BILISH NAZARIYASI – EPISTEMIOLOGIYA TADRIJI

Annotatsiya. *Bilish nazariyasi – epistemiologiya antik davrdan boshlab bugungi kunga qadar turli xil qarashlar, aksiomalar yaratilishiga sabab bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada o'z davrining yetuk olimlari, faylasuflari, adiblari tomonidan turlicha talqin qilingan epistemiologik qarashlar tahlil qilinib, ular o'rtasida o'xshash hamda farqli jihatlar qiyosiy o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *bilim, Platon, epistemiologiya, modernizm, Kopernik, bilish nazariyasi, Nyuton, Jon Benvill.*

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ТЕОРИИ ПОЗНАНИЯ – ЭПИСТЕМОЛОГИЯ

Аннотация. Теория познания *– эпистемология, начиная с античных времен и до наших дней, продолжает вызывать различные взгляды и порождать аксиомы. В данной статье анализируются эпистемологические взгляды, интерпретируемые различными выдающимися учеными, философами и литераторами своего времени, и проводятся сравнительные исследования их схожих и отличительных аспектов.*

Ключевые слова: *знание, Платон, эпистемология, модернизм, Коперник, теория познания, Ньютон, Джон Бенвил.*

THE EVOLUTION OF THE THEORY OF KNOWLEDGE – EPISTEMOLOGY

Annotation*. The theory of knowledge – epistemology, from ancient times to the present day, has led to the creation of various views and axioms. This article analyzes the epistemological views interpreted by*